FARG’ONA VILOYATI SO’X TUMANI HOKIMINING
QARORI

2024 - yil 23 - yanvar 9-11-159-Q/24 So‘x tumani hokimligi

Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. So‘x tuman dafn etish joylarini saqlash qoidalari (keyingi o‘rinlarda – qoidalar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 3.So‘x tuman Arxitektura va qurilish bulimi (M.Boybalaev), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bulimi (A.Xusenov), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bulimi (Q.Hasanov.), Obodonlashtirish boshqarmasi (O.Jalolov):

qoidalarning tegishli qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollar) bilan birgalikda doimiy targ‘ib qilib borilishi ta’minlansin.

4. Mazkur qaror Sadoi So‘x gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish So‘x tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Sayidmusaev**

So‘x tuman hokimining
2024-yil 23-yanvardagi
9-11-159-Q/24-son qaroriga
1-ilova

So‘x tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman	Tuman
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	136000	136000
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga		
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul	bepul
5	Maxsus nomerlangan ustunchalar	1 dona	17 000	17 000
	Jami:		**153 000**	**153 000**